

YAYLOVLARDA GEOBOTANIK TADQIQOTLAR O‘TKAZISH VA DAVLAT KADASTRINI YURITISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH



Asatov Sayitkul Rahimberdiyevich
b.f.f.d. (PhD)
[0009-0003-0791-6732]

“TIQXMMI” MTU ning Buxoro tabiiy
resurslarni boshqarish instituti

Asatov Jasurbek Sayitkulovich
iqtidorli talaba
[0009-0002-6719-819X]

Xolov Marat Umurzoqovish
yetakchi mutaxassis
[0009-0001-1571-8029]

“O‘zdavyerloyiha” DILI
Buxoro viloyati bo‘linmasi

Annotatsiya. Maqolada yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, o‘simlik dunyosi obyektlarini davlat tomonidan hisobga olish, ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish va davlat kadastrini ma‘lumotlari o‘simlik dunyosi obyektlarini hamda ular o‘sadigan muhitni saqlash, ulardan foydalanish, qayta ko‘paytirish va tiklash tadbirlarini rejalashtirish muammolari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘simlik dunyosi, yaylov va pichanzor, degradatsiya, ekologik vaziyat, atrof-muhit, davlat kadastrini, geobotanika, dala va kameral ishlar.

Развитие геоботанических исследований на пастбищах и системы управления государственным кадастра

Аннотация. В статье проанализированы проблемы повышения эффективности использования земельных ресурсов, государственного учета объектов растительного мира, учета объемов их использования и планирования мероприятий по сохранению, использованию, воспроизводству и восстановлению объектов растительного мира и среды, в которой они произрастают.

Ключевые слова: Растительный мир, пастбища и сенокосы, деградация, экологическая ситуация, окружающая среда, государственный кадастр, геоботаника, полевые и камеральные работы.

Development of geobotanic research on pastures and state cadastre management systems

Abstract. The article analyzes the problems of increasing the efficiency of land resources use, state accounting of flora objects, accounting for the volume of their use and planning measures for the conservation, use, reproduction and restoration of flora objects and the environment in which they grow.

Key words: Flora, pastures and hayfields, degradation, ecological situation, environment, state cadastre, geobotany, field and desk work.

Kirish. O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. O‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini va ulardan foydalanish hajmlarining hisobini yurituvchi vazirliklar, idoralar hamda tashkilotlar O‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini bo‘yicha zarur axborotni O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga tekin taqdim etadi. O‘simlik dunyosi obyektlarini davlat tomonidan hisobga olish, ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish va davlat kadastrini ma‘lumotlari o‘simlik dunyosi obyektlarini hamda ular o‘sadigan muhitni saqlash, ulardan foydalanish, qayta ko‘paytirish va tiklash

tadbirlarini rejalashtirish uchun asos hisoblanadi [1].

O‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini quyidagi maqsadlarda yuritiladi:

- o‘simlik dunyosi obyektlarining son va sifat holatini aniqlash;

- o‘simlik dunyosi obyektlarini iqtisodiy baholash;

- o‘simlik dunyosi obyektlaridan xo‘jalikda foydalanish hajmlarini aniqlash;

- davlat organlari, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarga o‘simlik dunyosi obyektlarining holati va ular o‘sadigan muhit to‘g‘risida ishonchli ma‘lumotlar taqdim etish;

- o‘simlik dunyosi obyektlarini saqlash, ulardan oqilona, barqaror foydalanish, himoya qilish, qayta ko‘paytirish va tiklash hamda ularning biologik xilma-xilligini saqlash;

- o‘simlik dunyosi obyektlarini saqlash, ulardan foydalanish, himoya qilish, qayta ko‘paytirish va tiklash talablariga rioya etilishini ta‘minlash.

O‘simlik dunyosi obyektlarining davlat

kadastr:

- o‘simlik dunyosi obyektlarining tarqalishi, populyatsiya holati, son va sifat tavsiflari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni;

- o‘simlik dunyosi obyektlaridan xo‘jalikda foydalanish xususiyati va hajmlari haqidagi ma‘lumotlarni;

- o‘simlik dunyosi obyektlarining tarqalish xaritasini;

- o‘simlik dunyosi obyektlari o‘sadigan umumiy muhit, o‘simlik dunyosi obyektlarini iqtisodiy baholash tavsifini;

- kadastr ma‘lumotlarini tizimlashtirish, saqlash, yangilash va manfaatdor foydalanuvchilarga tegishli shakl hamda hajmlarda belgilangan tartibda tezkor berish bo‘yicha tartibga soluvchi talablarni;

- o‘simlik dunyosi obyektlari haqidagi boshqa ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-maydagi 538-sonli “Yaylovlar to‘g‘risidagi” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5006-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 299-sonli hamda 2018-yil 7-noyabrdagi “Hayvonot va o‘simlik dunyosi va obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi 914-sonli qarorlarining ijrosini ta‘minlash maqsadida institut olimlari va “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti “Buxvilyerloyiha” Buxoro viloyat bo‘linmasi yaylov, geobotanika tadqiqotlari bo‘limi mutaxassislari hamkorlikda Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi “Qumsulton” massivining tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar olib borildi [3].

Tadqiqot obyekti va uslublari. Tumanning umumiy maydoni 132249,2 gektar shundan tadqiqot obyekti bo‘lgan “Qumsulton” massivining umumiy maydoni 88306 gektar bo‘lib, shundan yaylov va pichanzorlar 54397,88 gektarni tashkil qiladi. O‘rganishlar jarayonida degradatsiyaga uchragan maydoni 11755 gektar, toshli va erozilangan yerlar 6987 gektar, sho‘rxoq va taqir yerlar 1380,3 gektar,

sug‘oriladigan yerlar 6169,5 gektar, suv osti yerlari 1986,9 va boshqa yerlar 17384,5 gektarni tashkil etishi aniqlandi.

Ushbu ishlarni bajarish jarayonida “Yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqot ishlarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi nizom talablariga muvofiq xo‘jalikning tabiiy yaylov va pichanzorlaridagi o‘simlik dunyosi obyektlari, yaylovlarning holati, xilma-xilligi, sifati, tarqalish zichligi o‘rganildi va shuningdek yem-xashak o‘simliklarining hosildorlik darajalari mavsumlar bo‘yicha hisoblab chiqildi.

Yaylovlarning mahsuldorligi haqidagi ma‘lumotlar o‘simliklar kadastrini yuritishda, yaylov yerlarining me‘yoriy qiymat bahosini hisoblashda, shuningdek xo‘jalik ichki yer tuzish loyihalarini ishlab chiqishda muhimdir. Yaylov o‘simliklarini o‘rganish to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan chorva mollarini davolash va kasalliklarining oldini olishda veterinar nazorati xizmatchilari ham foydalanishlari mumkin [4].

Tayyorgarlik ishlari 2023-yilning fevral, mart, oylarida olib borildi. Tayyorgarlik ishlari davomida ishchi guruh tomonidan ishga aloqador tegishli hujjatlar, hisobotlar hamda kartografik materiallar yig‘ildi va tahlil qilindi. Shuningdek ishchi guruh ish davomida kerak bo‘ladigan barcha zaruriy jihozlar bilan ta‘minlandi.

Dala ishlari 2023-yilning bahor, yoz, kuz fasllarida amalga oshirildi. Dala ishlari davomida Buxoro viloyati Buxoro tumanining geobotanik xarakteristikasi va 1:25000 masshtabli geobotanik xaritasidan foydalanildi. Shuningdek 1:25000 masshtabli qishloq xo‘jaligi xaritasi tanlab olinib, tekshiriladigan marshrut nuqtalari belgilandi. Solishtirish va to‘xtash nuqtalari marshruti aniqlangandan so‘ng o‘simliklar qoplamini alohida tekshirish yo‘li bilan miqyosi 1:25000 bo‘lgan xaritaga tushirildi.

Xo‘jalikning tabiiy sharoitini o‘rganishda turli tabiiy va xo‘jalik konturlari, orfografiyasi, tuprog‘i, metrologik sharoitlari, suv bilan ta‘minlanishi aniqlandi. Dala ishlari natijasida xo‘jalik chegarasi yaylov o‘simliklari turlari, nobop yerlar, toptalgan yerlar, taqirlar va sho‘rtoplar aniqlandi hamda xaritaga kiritildi. Shuningdek yaylov xillarining har biri to‘liq yoritildi va har bir yaylov o‘simliklari xillari hosildorlik darajasini aniqlash uchun o‘simlik turlarining soni va sifati hisobga olindi. Kam uchraydigan va noyob o‘simliklardan gerbariy namunalari olindi. Shuningdek 270 ta asosiy va 350 ta qo‘shimcha o‘simliklar tavsifi daftarchalari

tuzildi. Buta, yarim buta va yirik o'tlar uchun 270 ta transekt tuzildi va 350 ta tuplarni modellarini qayt etish kartochkasi tuzildi, mayda o'tlar uchun 270 ta o'rish maydonchasi olindi. Har bir mavsumda o'tkazilgan dala ishlarining yakunlari bo'yicha olingan natijalar va ma'lumotlar kameral holatda umumlashtirildi, tahlil qilindi hamda oldingi mavjud ma'lumotlarga solishtirildi va taqqoslandi. Kameral ishlar davomida o'simliklar tavsifi daftarchalari tartibga solindi, gerbariyalar nomlari aniqlandi. Olingan o'simlik namunalari asosida yaylov o'simliklari turlari hosildorligi, quruq yem-xashak hosildorligi, ozuqa birligi, hazmlanish proteini hamma mavsumlar bo'yicha aniqlandi.

Dala va kameral ishlar natijasida yig'ilgan ma'lumotlar, qilingan tahlillar hamda xulosalar asosida xo'jalik yaylovlarining 1:25000 miqyosdagi geobotanik yaylov xaritasi tuzildi. Tuzilgan xaritaga eksplikatsiya berildi, unda yaylov o'simliklari tiplari va turlarining har biri uchun 1,68 s/ga hisobida quruq yem-xashak hosildorligi, 0,75 s/ga ozuqa birligi, 0,10 s/ga hazmlanish proteini yil mavsumlari va o'rtacha mavsumlarda berilgan.

Ushbu xo'jalikda aholi yashash joylariga yaqin bo'lgan hududlarda hamda quduqlar atrofida chorva mollarining me'yoridan ortiq boqilishi, ayrim yaylovlarda chorva mollari yemaydigan o'simliklarning ko'payishi natijasida yaylovlar turli darajada degradatsiyaga uchraganligini kuzatish mumkin.

Yer degradatsiyasi-uzoq muddatli ekologik mahsuldorligining kamayishi yoki tabiiy biologik xilma-xilligining ozayishi yoki tashqi ta'sirlarga bardoshlilikining yo'qolishi natijasida ekotizimning butunligiga salbiy ta'sir etuvchi yer tabiiy salohiyatining yomonlashuvi shaklidir. Oddiy so'z bilan aytganda, yer degradatsiyasi bu yer oldingi unumdorligining yo'qolishidir. Qumsulton massivida yaylovlarning maishiy va sanoat chiqindilari bilan zararlanish va ifloslanish holatlari, aholi yashash joylariga yaqin bo'lgan hududlarda hamda chorva mollarini sug'orish inshootlari atrofida me'yoridan ortiq boqilishi, mahalliy aholi tomonidan yaylovlar hududidagi toshlarning qurilish xomashyosi sifatida ishlatish uchun olib ketilishi oqibatida yaylov maydonlarining buzilishi, mayda toshli tuproqlar bilan qoplanishi hamda ayrim yaylovlarda chorva mollari yemaydigan o'simliklarning ko'payishi natijasida yaylovlar turli darajada degradatsiyaga uchraganligini kuzatish mumkin.

Kuchli darajadagi degradatsiya

1783,3 gektar, O'rta darajadagi degradatsiya 5640,6 gektar, kuchsiz darajadagi degradatsiya 4331,2 gektarni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Geobotanik izlanishlar va kameral ishlar natijasida xo'jalikda quyidagilar aniqlandi:

1. Umumiy maydoni 88 306 gektar bo'lib, shundan yaylovlar 54398 gektar shundan degradatsiyaga uchragan maydon 11755 gektar 1783,3 gektar kuchli, 5640,6 gektar o'rta, 4331,2 gektar kuchsiz darajada degradatsiyaga uchragan), toshli va eroziyaga uchragan yerlar 6987 gektar, sho'rxoq va taqir yerlar 1380 gektar, sug'oriladigan yerlar 6169 gektar va boshqa yerlar 17 384 gektarni tashkil qiladi. Madaniy texnik holati o'rganilganda yaylovlar 42643 gektar, shundan butazorlar 7062 gektar, kemiruvchilar uyasi 38,43 gektar, yo'llar 136,2 gektar, zararli o'simliklar uchraydigan maydonlar 76,86 gektar, zaharli o'simliklar uchraydigan maydonlar esa 115,3 gektar ekanligi aniqlandi.

2. Yaylovlardagi chorva mollari yeydigan yem-xashak ozuqabop o'simliklardan yillik hosildorlik olib o'lgachanda o'rtacha xosildorlik 1,69 s/ga ga ozuqa birligi esa 0,75 s/ga ga teng ekanligi aniqlandi.

3. Hududda olib borilgan tadqiqotlar natijasida mavjud maydonlarda tarqalgan 19 ta o'simlik turi o'sishi aniqlandi. Shulardan 16 tasi barcha mavsumlarda chorva mollari tomonidan yeyiladigan o'simliklar, 3 ta chorva mollari yemaydigan o'simliklar va zaharli o'simliklardan uchma o'simliklari o'sishi aniqlandi.

4. "Qumsulton" massivi hududining cho'l mintaqalari chorva mollarni sug'orish uchun 5 ta quduq mavjud bo'lib ushbu quduqlarning barchasi soz holatda ammo 2 ta ta'mir talab quduq botqoqlashib, ko'milib bormoqda, chorva mollarini sug'orish uchun quduqlardan tashqari zovur va kanallar suvlaridan ham foydalaniladi. Mavjud yaylovlardan samarali foydalanish maqsadida foydalanuvchi mavjud xo'jaliklar va davlat grantlari loyihasi asosida quduqlarni ta'mirlash va qo'shimcha quduqlar qazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maydonlarning asosiy qismida suv ta'minoti manbalari yaylovlar uchun atmosferadan, yog'ayotgan yomg'ir orqali suv bilan ta'minlanadi.

5. Xo'jalik hududi yaylovlarning tarqalishiga qarab 1 ta poyas, 2 ta yaylov guruhi, 7 ta yaylov tipi va 9 ta yaylov xiliga ajratildi:

Poyaslar: Quyi cho'l pog'onasi

Yaylov guruhlari: A. Qumlardagi butasimon

yaylovlar guruhi; V. Daryo o‘zanlarida o‘tloqi tuproqlardagi to‘qay yaylovlari guruhi.

Yaylov tiplari: 1. Oq saksovulli; 2. Juzg‘unli; 3. Cherkezli; 5. Partakli; 8. Boyalishli; 19. Yulg‘unli; 22. Yantoqli.

Yaylov xillari:

1. Past-baland va jo‘yaklashgan qumlarda selen iloqli-oq saksovulli; 11. Past-baland qumlarda efemer-singrenli-juzg‘unli; 15a. Past-baland qumlarda efemer-singrenli-juzg‘unli; 23. Singrenli-iloqli-partakli; 59. Iloqli-juzg‘unli-boyalishli-efemerlar bilan; 104. Yantoqli-yulg‘unli; 115. Yantoqli efemerlar bilan; 123 Past-baland qumlar va sho‘rlangan pastkamliklarda jusanli-boyalishli-aralash saksovulli iloq va efemerlar bilan; 131. Juzg‘unli-singrenli-boyalishli va keyreukli.

6. O‘tayotgan yilning qishi va erta bahorda ob-havoning yog‘ingarchilik kam bo‘lganligi sababli yaylovlarning hosildorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan, natijada yaylovdan foydalanish samaradorligi past, buta va yarim butalar yaxshi rivojlanmagan. Efemer va efemeroidlar erta bahorda yog‘ingarchilik kam bo‘lganligi sababli yaxshi rivojlanmagan. Bu esa yaylovlarda chorva mollarini muntazam boqish imkoniyatini bermaydi.

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Yaylovlardan ilmiy asoslangan holda foydalanilmaslik oqibatida viloyatimiz yaylovlarning 60-70% hududida yaylov qashshoqlanishi jadal bormoqda. Bu yaylovlarda tabiiy o‘t qoplaminig hosildorligi bundan 30-40 yil oldingiga nisbatan 30% kamaygan. Qo‘y qo‘ralari, quduqlar atrofidagi yaylovlarda mollarning me‘yorga nisbatan 10-15 barobar ko‘p miqdorda uzluksiz boqilishi oqibatida degradatsiyaga aylanib bormoqda.

Yaylovlar degradatsiyasini kuzatish maqsadida turli indikatorlar mavjud bo‘lib, ularning eng muhimlaridan biri o‘simlik qoplami hisoblanadi. Yaylovlardagi mavjud agrometeorologik ma‘lumotlar, yaylovlarni aerofotometrik tekshirishi va sun‘iy yo‘ldoshlardan olingan ma‘lumotlar hosildorlikning ko‘p yillik dinamikasini kuzatib borish, undagi o‘zgarishlarni tadqiq qilish na degradatsiyaga uchragan hududlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu natijalar joylarda yaylov degradatsiyasining oldini olish tadbirlarini ishlab chiqishni tatbiq etish uchun asos hisoblanadi. Shu sababli mavjud yaylovlarni asrash, tanazzulga yuz tutishining oldini olish, yaylov o‘simliklarining hosildorligini oshirish, umuman olganda yaylovlardan oqilona va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim. Buning

uchun ayrim yaylovlarda chorva mollarining haddan tashqari ko‘p boqilishining oldini olish maqsadida mavsumiy foydalanishni yoki tashkil etish; Inqirozga uchragan yaylovlarni tiklash maqsadida, ozuqabop o‘simliklarni birlamchi urug‘chilik maydonlarini tashkil etish; Yaylovlarda tartibli almashlab boqish tizimini joriy qilish;

Yaylovdagi buta va yarimbuta o‘simliklarni aholi tomonidan qishki mavsumda xomashyo sifatida foydalanmaslik uchun aholiga tushuntirish ishlarini olib borish lozim; Chorva mollari me‘yorini yaylovlarda teng taqsimlash, chorva bosh sonini oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik; Yaylovlarda tuproq va shamol eroziya tufayli o‘simlik qoplami kamayishining oldini olish uchun eroziyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish ya‘ni buta va yarim butalarni ekib ko‘paytirish; Uzoq va kam foydalaniladigan yaylovlarga boradigan yo‘llarni yaxshilash yoki yangi yo‘llar ochish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishda mutaxassislar va sohada ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan xodimlarning hamkorlik qilishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yaylovlar chorva mollarini boqish va ko‘paytirish uchun asosiy ozuqa manbai va vosita hisoblanadi. Shu sababli mavjud yaylovlarni asrash, tanazzulga yuz tutishining oldini olish, yaylov o‘simliklarining hosildorligini oshirish, umuman olganda yaylovlardan oqilona va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Buning uchun ayrim yaylovlarda chorva mollarining haddan tashqari ko‘p boqilishining oldini olish maqsadida mavsumiy foydalanishni tashkil etish;

Yaylovlarning suv bilan ta‘minlanishini yaxshilash uchun yangi tik quduqlarni skvajin qazish, ulardan foydalanishni amalga oshirishda quyosh panellaridan foydalanilsa iqtisodiy jihatdan kam xarajatga erishiladi.

Yaylovlardan samarali foydalanish, ularning holati yomonlashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, ilmiy va innovatsion yondashuvlarni qo‘llagan holda mayda shohli nasldor chorva mollarni ko‘paytirish, klaster ishtirokchilari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yish orqali yaylovlar holatini yaxshilash maqsadga muvofiqdir. “Qumsulton” massivi yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishda eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta‘minlash va yuritish tartibini belgilaydi.

“Qumsulton” massivida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanish lozimdir:

Degradatsiyaga uchragan maydonlarni aniqlab mazkur hududda yaylov o'simliklarini boyitish, o'tloqlarda kam iste'mol qilinadigan o'tlarni ozuqa jihatidan qimmatliroq bo'lgan izen, teresken, singren, shuvoq kabi o'simliklar bilan almashtirish tadbirlarini o'tkazish lozim; Fermer xo'jaliklari va yaylovdan foydalanuvchilar kooperativlari tomonidan ma'lum hududlarni sim to'siqlar bilan o'rash, bunda yaylov urug'chiligi tashkil etiladi.

Yaylovlarda tuproq va shamol eroziyasi tufayli o'simlik qoplami kamayishining oldini olish uchun eroziyaga qarshi buta va yarim butalarni ekib ko'paytirish; Yaylov degressiyasi ozuqa qiymatiga ega, chorva mollari o'tlatilmagan o'simliklar, tartibsiz va ortiqcha chorva mollarni o'tlatish natijasida tuproq degradatsiyasiga uchragan yaylovlarda tabiiy yaylov o'simliklarining yo'qolishi va o'zgarishini kuzatib oldini olish; yaylov infratuzilmasi - yaylov chorvachiligida foydalaniladigan sug'orish inshootlari (chorva mollarni va yaylovlarni sug'orish uchun jihozlangan va ishlatiladigan quduqlar boshqa sug'orish punktlari), suv o'tkazgichlar, chorva mollari o'tadigan joylar, yo'llar, qo'ralar, sun'iy urug'lantirish punktlari, chorva mollarni o'tlatish uchun o'rab olingan hududlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Yaylovlarni takror ko'paytirish yaylovlardagi tuproq unumdorligini, o'simlik qoplaminin miqdor va sifat holatini saqlab turishning tabiiy jarayonlariga ko'maklashish hamda yaylov xo'jaliklarini rivojlantirish uyushmalari bilan hamkorlikda urug'chilik plantatsiyalarini tashkil etish lozim. Cho'l-yaylovlarda ekologik vaziyat ancha izdan chiqqanligi

ma'lum. Bu mintaqalarda insonning noto'g'ri xo'jalik yuritishi, ayniqsa, chorva mollarnin me'yoridan ko'p va tartibsiz boqilishi tufayli tabiat aziyat chekmoqda. Demak, ushbu hududlar ham muntazam ekologik monitoring tadqiqotlariga muhtoj. Joylardagi o'simlik dunyosi obyektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish davomida o'simlik dunyosi obyektlarini davlat tomonidan hisobga olish subyektlari joriy ma'lumotlarni to'plashda hududda kadastr bo'yicha tekshirish o'tkazilgandan so'ng ro'y bergan keyingi barcha o'zgarishlarni qayd etib, har yili kadastrga kiritiladi. O'simlik dunyosi obyektlari davlat tomonidan har yili hisobga olinadi. O'simlik dunyosi obyektlarini davlat tomonidan hisobga olish subyektlarining vakolatli shaxslari o'simlik dunyosi obyektlarini davlat tomonidan hisobga olishda (kadastr ma'lumotlarini birlamchi to'plashda) o'simlik dunyosi obyektlari, ularning o'sish muhiti to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, hududda kadastr bo'yicha tekshirish o'tkazilgandan so'ng ro'y bergan barcha o'zgarishlar hisobga olish hamda boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobiga kiritiladi. Yaylovlar holati yomonlashishi oldini olish va foydalanish samaradorligini oshirish uchun yaylovlardan o'tkazilgan geobotanik tadqiqot natijaridan kelib chiqqan holda berilgan taklif va tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. O'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastr bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim etish turlari, hajmlari va muddatlari Davlat ekologiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida" gi 914-son qarori . Toshkent. 2018-yil 7-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 299-sonli qarori. 2018-yil 23-aprel.
3. Asatov, S. R., Sulaymonov, J. N., Mukhamadov, K. M., Akhrorov, A. K., & Bobojonov, S. U. (2023, February). Sustainability in land use and maintenance of soil productivity. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1138, No. 1, p. 012027). IOP Publishing.
4. Асатов С.Р. Пути улучшения эколого-мелиоративного состояния орошаемых почв Бухарского оазиса республики Узбекистан при дефиците воды. // Ж.: "Актуальные проблемы современной науки". – Москва, 2021. – №4 (121). – С.98-100.
5. Asatov S.R., Adizov Sh.B., Nuriddinov O.X. Buxoro viloyatida tarqalgan sug'oriladigan tuproqlarining meliorativ holati // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2020. – №1. – Б.69–71.
6. Ахмедов А.У. Актуальные проблемы мелиорация засоленных почв аридной зоны // Вестник аграрной науки Узбекистана. – Ташкент: "ТашГАУ" 2002. №3 (9). –С.6-7.
7. Ахмедов А.У., Абдурахмонов Н.Ю., Рузметов М.И., Каримов Х.Н. Особенности формирования и направленности процесса засоления орошаемых почв Низовьев Амударьи //Актуальные проблемы почвоведения, экологии и земледелия. Сборник докладов Международной научно-практической конференции Курского отделения МОО "Общество почвоведов имени В.В. Докучаева". -Курск, 2018. - С. 35-39
8. Bobomurodov Sh.M. Yer umummilliy boyligimizdir // "AGRO HIDRO NEWS" jurnali. -Toshkent, 2019. - №4. - Б. 12-13.
9. Qo'ziyev R.Q., Abduraxmonov N.Y. Sug'oriladigan tuproqlarning evolyutsiyasi va unumdorligi – Toshkent: "Navro'z", 2015. – Б. 212.
10. Ro'zmetov M.I., Turayev R.A., Davronov O.O., Norqulov M.N., Akramov I.L., Xakimov B.B., Xayitova X.K. Toshkent 2022-y qayta 2 nashr O'zbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent-"Turon-Iqbol"-2018-y
11. S.B. Adizov, A.B. Obidovich, M.M. Maxmudov - Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2021 Rights and Responsibilities of the Spouse.